

**MAQSUD SHAYXZODANING ASARLARIDA MIRZO ULUG'BEK
OBRAZI**

Ikramova Feruza Xayrullayevna (Toshkent Davlat Transport Universiteti dotsenti) feruza.ikromova71@gmail.com

Imomova Mohidil Furqat qizi (Toshkent Davlat Transport Universiteti YMAE-7r guruhi talabasi) mohidilimomova05@gmail.com

Annotatsiya: "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi adolatli shoh va buyuk falakiyot ilmi sohibi, olim Ulug'bek hayoti va faoliyatini barcha murakkab tomonlari bilan: ziddiyatli, to'qnashuvlar asnosida, uzoq o'tmishdagi tarixiy haqiqatni yoqqol badiiy shaklda qaytatkashga bag'ishlangan. Ushbu maqolada shoh va olimning obraji tasvirida muzassam bo'lgan ezgu hislatlar, o'ziga xoslik va badiiy mahorati xususida so'z boradi.

Kalitso 'zlar: tragediya, tarixiyfojea, badiiymahorat, adolatlihukmdor, falakiyot, xarakter, aql-zakovat.

Annotation: The tragedy "Mirzo Ulugbek" is dedicated to the restoration of the historical truth of the distant past in a vivid artistic form: the just king and the great astronomer, the scientist Ulugbek's life and work with all its complexities: contradictions, conflicts.. This article deals with the noble qualities, originality and artistic skill embodied in the image of the king and the scholar.

Keywords: tragedy, historical tragedy, artistic skill, just ruler, disaster, character, intelligence.

Atoqli shoir, dramaturg, nuktadon adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotini, xususan she'riyatini go'zal lirik she'rlari bilan, dramaturgiyasini esa «Mirzo Ulug'bek», «Jaloliddin Manguberdi» kabi o'lmas asarlari bilan boyitdi. Maqsud Shayxzodaning 1960-yilda yaratilgan va chinakamiga shoh asar deya atalishga loyiq «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi XX asr o'zbek adabiyotida katta adabiy hodisa edi. Zero, shoir Abdulla Oripov yozganidek: Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Unga kiygizardi Sulton Ulug‘bek.Maqsud Shayxzodaning tarixiy-biografik janrda yaratilgan besh pardali “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasi 20-asr o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Ijodkor buyuk alloma hayoti qirralarini ohib berar ekan, Ulug‘bekning shaxsiy fazilatlari: aql-zakovati, donoligi va xalq uchun buyuk xizmatlarini o‘sha davrdagi jaholat,adovat,tengsizlik botqog‘iga botgan jamiyat o‘rtasidagi kurash bilan birga yoritib berishga harakat qilgan. Asar nihoyatda yuksak darajada mahorat bilan yozilgan. “Undagi tasvirlangan hayot dramatizmi jihatidan eng mashhur tragediyalardagidan zarracha kam emas, asardagi yetakchi xarakterlar har jihatdan barkamol,qahramonlarning gaplarini aytmaysizmi - aksariyati purma’no,hikmatga boy. Albatta, hayotda Mirzo Ulug‘bek chinakamiga donishmand odam o‘tgan bo‘lsa kerak – Shayxzoda asarni yozish jarayonida shu darajaga ko‘tarila olgan,uning qiyofasiga kirib turib,ichki dunyosini tugal o‘zlashtirib turib qalam tebratgan...“Mirzo Ulug‘bek” dramasini hech ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda qo‘ysa bo‘ladi”.

Maqsud Shayxzoda asarni yaratishdan oldin uzoq yillar davomida Ulug‘bek yashagan davri haqida yozilgan kitoblar va ma’lumotlarni diqqat bilan sinchiklab o‘rgangan. Agar shunday bo‘lmaganida ehtimol drama bunchalik real faktlarga boy, hayotiy lavhalari ta’sirchan, ziddiyat va to‘qnashuvlarni mohirona ohib berolmagan bo‘ldi.“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi bosh qahramoni faoliyati,boshidan kechirgan voqealar va qahramonlar hayoti shunchalik hayotiy voqelikka monand tasvirlanganki, kitobxon asar qahramonlari ichiga tushib qolib, bevosita ular hayoti bilan o‘zi ham yashaydi, to asar nihoyasiga yetgungacha bu hissiyot, ruhiy kechinmalar og‘ushida turli vaziyatlarda uni tark etmaydi.Chunki, adibning ”Mirzo Ulug‘bek” fojiasida “shohlikni ma’rifatga dastyor qilgan”sulton Mirzo Ulug‘bek hayotining eng fojiaviy bo‘lagi tasvirga olinadi. Muallif sulton Ulug‘bek boshidan kechirgan voqealarini bayon etishga,ularning tarixdagi salmog‘ini ko‘rsatishga emas,balki qahramonlarning ruhiy holati hayotiy vaziyatga muvofiq tarzda tasvirlanishiga ahamiyat beradi”

Dramada Ulug‘bek olim sifatida olam va koinot hodisalarining bilimdoni, ilm-fan, xususan, astronomiya sohasida buyuk kashfiyotlar egasi, ota sifatida keng mulohazali,sabr-bardoshli,oilasi, farzandlari uchun jonkuyar va mehribon, kezi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kelganda talabchan va qattiqqo'l inson sifatida gavdalanadi. Dramani o'qir ekansiz, qarshingizda ilmni hamma narsadan ko'ra ustun biladigan, qadrlaydigan, adabiyot va san'at ahliga cheksiz hurmat bilan qaraydigan, shogirdlariga beminnat falakiyot sirlarini o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi olim, ustozi qiyofasi namoyon bo'ladi. Asarning bir o'rnida Ulug'bek tilidan aytilgan mana bu so'zlar turli davralarda shogirdlari, ilmu tolib ahliga munosabati, uning sermulohazali, dono inson bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turadi: Toki, hech kim o'sha yerga bosib kirmagay! Chunki, biling, Ulug'bekning madrasasida o'qiyotgan talabaning hammasini ham men olganman himoyamga. Bari shogirdim.

Ulug'bek ilm-ma'rifat homiysi, u ilm-ma'rifat orqali jamiyatdagi tengsizlik va jaholatga barham berish, mamlakatdaadolat o'rnatisht, xalqni azob-uqubat botqog'idan olib chiqish niyatida edi.

Ulug'bek hukmdor sifatida har bir masalani donishmandlik, diyonat va insof bilan hal etishga, xalqni birlashtirish, tinch-totuvlik bilan mamlakatni ravnaq toptirishga harakat qilgan. Biroq qirq yil davom etgan hukmronligi davomida ilm-fan yo'lidagi ezgu-ishlari, fidoiyligi fojiali yakunlanadi. Qanchalik urinmasin, ijtimoiy muhitda shakllangan atrofidagi yovuz niyatli kishilar qamrovidan chiqib keta olmaydi, ota sifatida farzandlariga qanchalik mehr bermasin, o'z farzandining nafsi va xudbinligi qurbaniga aylanadi.

Maqsud Shayxzoda dramaga olib kirgan har bir obraqi, xoh u tarixiy shaxs bo'lsin, xoh to'qima obraz bundan qatiy nazar ma'lum bir maqsad uchun harakatga keltiradi, bu esa asarning haqqoniyligi va ta'sirchanligini oshirib, Ulug'bek shaxsining ma'lum bir qirrasini yaqqol ochib berishga, xarakterini gavdalantirishga xizmat qiladi:

Ijodkor "Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojeasi bilan o'zbek adabiyotini yuksakka ko'tardi, ulug' inson obrazini yaratish vazifasini juda yaxshi uddaladi. Drama orqali bugungi yosh avlod o'zbek xalqining qadimdan buyuk daholari,adolatpesha, ma'rifatparvar, aql-zakovat egalari yetishib chiqqanligini faxr va g'urur hissi bilan anglaydi. O'ylaymizki, asar kelajak nasllar uchun ham uzoq yillar ma'naviy ozuqa sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2016 yil.
2. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug‘bek. “O‘qituvchi”. Toshkent. 1994 yil, 134-bet.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshov. Yoniq so‘z. ”Yangi asr avlodи“. Toshkent. 2006 yil, 217-bet.
4. Ozod Sharofiddinov. Ijodni anglash baxti. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2004, 544-bet